



AMIR TEMUR VA MISR SULTONLIGI O'RTASIDA DIPLOMATIK
ALOQALARNING YO'LGA QO'YILISHI VA SIYOSIY VAZIYATNING
KESKINLASHUVI

Hasanova Nodira Ibragimovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix va falsafa kafedrası t.f.f.d, dotsent

Qalandarova Madina Jo'rabek qizi

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix yo'nalishi 4-bosqich talabasi e-mail:
qalandarovam05@gmail.com*

Annotatsiya: Amir Temurning Misr mamluklari bilan bo'lgan siyosiy munosabatlari diplomatik nuqtai nazardan juda ibratlidir. XIV asr oxirida vujudga kelgan muayyan xalqaro vaziyat tufayli Osiyo, qisman Afrika va Yevropa hududida Usmonli Turkiya, Amir Temur davlati, Misr mamluklar saltanati va Oltin O'rda eng qudratli davlatlar sifatida siyosiy maydonga chiqdi. Ushbu maqolada Amir Temur va Misr sultoni Barquq o'rtasidagi diplomatik aloqalarning yo'lga qo'yilishi, siyosiy vaziyatning keskinlashuvi haqida kerakli ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'z: Barquq, mamluklar, Uvays Jaloyir, Ibn Arabshoh, Tabriz, Mordin hokimi.

Аннотация: Политические отношения Амира Темура с египетскими мамлюками весьма поучительны с дипломатической точки зрения. В связи с определённой международной обстановкой, сложившейся в конце XIV века, Османская Турция, государство Амира Темура, Египетская империя мамлюков и Золотая Орда стали могущественнейшими государствами в Азии, отчасти в Африке и Европе. В данной статье представлены необходимые сведения об установлении дипломатических отношений между Амиром Темуром и египетским султаном Баркуком, а также об обострении политической ситуации.

Ключевые слова: Баркук, мамлюки, Увайс Джалоур, Ибн Арабшах, Тебриз, правитель Мордина.

Abstract: Amir Temur's political relations with the Egyptian Mamluks are very instructive from a diplomatic point of view. Due to a certain international situation that arose at the end of the 14th century, Ottoman Turkey, the state of Amir Temur, the Egyptian Mamluk Empire and the Golden Horde emerged as the most powerful states in Asia, partly in Africa and Europe. This article provides the necessary information about the establishment of diplomatic relations between Amir Temur and the Egyptian Sultan Barquq, the aggravation of the political situation.

Keywords: Barquq, Mamluks, Uwais Jaloyir, Ibn Arabshah, Tabriz, Governor of Mordin.

Amir Temurning Misr mamluklari bilan bo'lgan siyosiy munosabatlari diplomatik nuqtai nazardan juda ibratlidir. XIV asr oxirida vujudga kelgan muayyan xalqaro vaziyat tufayli Osiyo, qisman Afrika va Yevropa hududida Usmonli Turkiya, Amir Temur davlati, Misr mamluklar saltanati va Oltin O'rda eng qudratli davlatlar sifatida siyosiy maydonga chiqdi. 1382-yili Misrda hokimiyat tepasiga kelgan Sulton az-Zohir Barquq boshliq cherkas



mamluklari davlati tarkibiga kirgan Suriya, ularga tobe Iroq va muqaddas sajdagohlar makoni Xijoz bilan birgalikda qudratli kuchga aylangan bo'lib, Sharqdagi qo'shni mamlakatlar uchun himoya vazifasini ham o'tardi. Shu sabab qator mamlakatlar va amirliklar mamluklar davlatini e'tirof etib, uning himoyasiga umid bog'lagan holda mamluklar davlati bilan sulh tuzishga shoshildi. Markaziy Osiyoda Amir Temur markazlashgan yirik davlat tuzib, uning g'arbiy sarhadlarida nufuzi oshaborgach, bu harakat ayniqsag kuchaydi. Amir Temur davlatining qudrati va nufuzi orta borishi bilan Misr mamluklar saltanatiga ko'p qo'shnilar murojaat qilib, yordam so'ray boshladilar. Masalan, Sinjar, Qaysariya va Takriyt hokimlari 1383-yili Misr Sultoniga maktub yo'llab, xutbani uning nomi bilan o'qiganlarini bildirganlarida Sulton Barquq darhol ularni o'z noiblari etib tayinladi.¹ O'z navbatida, aytish joizki, bu voqealar Amir Temurning ba'zi arab mamlakatlari hududlarida paydo bo'lishi bilan bir vaqtda to'g'ri keldi. Jumladan, 1386 yili Sohibqiron qo'shinlari Tabriz shahrini qamal qilib, undan Qora Yusuf turkmanni haydab chiqarib, shaharni egallaganida Iroq hokimi Sulton Ahmad ibn Uvays Jaloyir bunga ko'p ham e'tibor bermay, mamlakat ichkarisiga — Bag'dodga chekinish bilan chegaralandi, Ayni vaqtda bu voqealar yaxshilikka olib kelmasligini his qilib, turkman Qora qo'yunlilar qabilasining boshlig'i Qora Yusuf va bir qator arab yo'l boshchilari bilan Amir Temurga qarshi bitim tuzdi. Shu bilan birga, 1388-yil oxirlarida Amir Temur qo'shinlari Tabrizdan chiqib ketganlarida Qora Yusuf Misr sultoni Barquqqa maktub yo'llab, Tabrizda uning nomi bilan pul zarb etib, masjidlarda uning nomi bilan xutba o'qilayotganini bildirdi va o'zini Sultonning Tabrizdagi noibi etyb tayinlanishini so'radi. Iroq hokimi Sulton Ahmad ibn Uvays badaxloqligi bilan tanilgan bo'lib, fisqu fujur va buzuvchilikka mukkasidan ketgan edi. Sulton Axmad o'lgudek xasis bo'lib, bir nechta sandiqqa joylab qo'yilgan mol-davlati va javohirlaridan xavotirda edi. Hammadan ko'ra u soqchilari mamluklardan ko'p xavfsirardi. Shu bois o'z bexatarligidan tashqari, mol-dunyosi va qimmatbaho boyliklarini qay tarzda qutqarish haqida mudom bosh qotirardi. Shu mulohazalarga ko'ra, o'z ittifoqdoshi Qora Yusuf va Damashqda hukm yuritayotgan mamluklar bilan doimiy aloqada bo'lib turdi. Bir guruh maxsus navkarlarni uchqur otlar bilan ta'minlab, ular zimmasiga o'zi, oila a'zolari va boyliklarini qo'riqlashni, zarurat tug'ilgudek bo'lsa, qochishga tayyor turishlarini topshirgan. O'z hududlari chegarasida — poytaxt Bag'doddan 140 kilometr masofada xabarchi kabutarlar bilan o'z kuzatuvchilarini ham qo'yganki, ularga Amir Temur qo'shinlari yaqinlashuvi haqida Sultonni o'z vaqtida ogoh qilish topshirilgan edi. Shu voqealar jarayonida Amir Temur Mordin hokimi Majdiddin Isoga maktub yo'llab, uni o'z huzuriga kelishga da'vat qildi. Lekin Mordin hokimi Misr sultonining qo'llabquvvatlashidan umid qilib, uning ruxsatisiz Amir Temur huzuriga bora olmasligi to'g'risida o'z uzrini bildirdi. Bunday javobdan g'azablangan Amir Temur unga ikkinchi marotaba xat yo'llab: «Sening yerlaring ustidan hukm yuritishga Misr Sultonining hech bir haqqi yo'q», degan uzil-kesil fikrni bildirdi hamda xat yo'llashdan maqsad Mordin hokimi bilan do'stona munosabatlar o'rnatish ekanligini uqdirdi.² Amir Temur bu xolis niyatli maktub bilan birga qimmatbaho sarpo, oltin va ishlangan buyumlar, javohirlar va ko'pdan-

¹ Muhammadjonov Abdulhad. Temur va temuriylar saltanati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1994.

² Ahmedov Bo'riboy. Amir Temur. – Toshkent: 1996.



ko'p dinorlar ham yubordi. Mordin hokimi yuqoridagi muloqotlar haqida Misr Sultoni Barquqqa xabar yetkazish taraddudida bo'lganida 1393 yili Amir Temur kutilmaganda orqaga qaytib g'arb tomondan Bag'dod ustiga hujum qildi. Sulton Ahmad ibn Uvays Amir Temur qo'shinlari hujumi kutilayotgan shaharning g'arbiy tomonidagi ko'prikdan o'tib, uni buzdirib tashladi va sahar chog'i o'z xonadoni a'zolari, xotinlari va boyliklarini olib shaharni tark etdi. Bag'dodni muhosara qilish 1393 yil iyul oyida boshlanib, ikki oy davom etdi va shahar egallash bilan tugadi. Muhosara chog'idagi shiddatli janglarda ko'p odam halok bo'ldi, shaharning talay qismi, jumladan, devorlari, masjidlar va bozorlar vayron etildi. Amir Temur Sulton Ahmadning orqasidan Mironshoh boshliq ta'qib guruhini yubordi. Ikki kun ta'qibdan so'ng qochoqlar quvib yetildi. Sultonning boyliklari, ba'zi oila a'zolari qo'lga olindi, bir qism sheriklari qilichdan o'tkazilib, aksariyati asir qilindi. Sulton Ahmadning o'zi uch yuzga yaqin suvoriylari bilan qochib qutulib, yarim yalang'och holda Sulton Barquqning huzuriga ravona bo'ldi.

Amir Temur Bag'doddan ketaturib Qohiraga, Sulton Barquqqa og'zaki maktub bilan o'z elchilarini jo'natdi. Ular davlatlar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatilishi, savdo va tijorat ahllari bemalol bordi-keldi qilishlari, o'rtada hech qanday adovat va ixtilof bo'lmasligi haqidagi fikrlarni bildirishdi. Biroq Sulton Barquq elchilarni qatl etib, o'zining bu qilmishidan g'oyatda sururga to'ldi. Bunda u ko'zlagan maqsadlardan biri turklar sultoni Boyazid e'tirofini qozonish edi. Chunonchi, Amir Temur qo'shinlaridan bir qismi Anatoliyaning ayrim hududlarida turishi turk sultonining unga nisbatan ochikdan-ochiq g'azabini qo'zg'atgan edi.³

Amir Temur bilan Sulton Barquq o'rtasidagi rasmiy aloqalar 1385-yildan boshlangan edi. Nisbatan qisqa muddatda—1386-yildan to 1405-yilgacha Amir Temur hamda Misr Sultoni Barquq va Faraj, shuningdek, ularning Suriyadagi noiblari o'rtasida taxminan 25 marta maktub va elchilar almashuvi bo'lgan. 1385-yil noyabr oyida Amir Temur maxsus elchi orqali Sulton Barquqqa maktub yo'llagani ma'lum. Elchi Qohirada yaxshi kutib olinib, unga munosib javob qaytarilgan. Afsuski, bu maktubning mazmuni aniqlanmay qolmoqda. Avval zikr qilinganidek, Qohiraga Mordin hokimining choparlari kelib, Amir Temur Tabrizni egallagani, Sulton Ahmad ibn Uvays poytaxt Bag'dodga chekingani haqida xabar yetkazdilar. O'shanda Sulton Ahmad bir ayolni Sulton Barquqqa yo'llab, Amir Temurning niyati avval Bag'dodga kirib, so'ngra Suriyaga qaytish ekanligidan sultonni ogoh qilmoqni istagandi. Ayol Damashqqa kelgach, shahar noibi Baydamir uni darhol Qohiraga — sulton huzuriga jo'natdi. 1387 yilda Qohiraga kelgan bir xabardan Amir Temur Amid hokimi Qora Yusuf qo'shinini tor-mor qilib, shaharni egallagani va Qora Yusuf qochib ketgani ma'lum bo'ldi.⁴

1388 yilda mamluklarning Amir Temur qo'shinlari bilan birinchi marotaba qurolli to'qnashuvi yuz berdi. Sivos turkmanlari mamluklarning hujumi tufayli himoya so'rab Amir Temurga murojaat qilganlari bunga sabab bo'lgan edi. To'qnashuvda, Amir Temur qo'shinlari son jihatidan ko'p bo'lmagani bois, g'alaba Halab noibi Yalbug'a an-Nosiriy boshchiligidagi mamluklarda bo'ldi. 1388 yil oxirida Amir Temur vataniga qaytdi. Uning

³ Usmonov Qamariddin va boshqalar. O'zbekiston tarixi: oliy o'quv yurtlarining bakalavrlari uchun darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA», 2016. – 496 b.

⁴ Shamsutdinov Rustambek va boshqalar. Vatan tarixi. Birinchi kitob. "Sharq". T-2016



yo'qligidan foydalangan Qora Yusuf to'satdan Tabriz ustiga hujum qilib, shaharni Amir Temur odamlaridan tortib oldi. Qora Yusuf bu bilan cheklanib qolmay, xutbani Sulton Barquq nomiga o'qitib, shuningdek Sulton Barquq nomiga pul ham zarb etib, unga o'sha dirhamlardan yubordi.⁵

Shuni ta'kidlash kerakki, Sulton Barquq har safar Amir Temurga o'ta nafrat bilan munosabatda bo'lib, doimo: «Men ...undan qo'rqmayman, chunki barcha (podshohlar) unga qarshi meni qo'llab-quvvatlaydi, men faqat ibn Usmon (Boyazid)dan qo'rqaman», — deya ta'kidlardir. Voqealarning shu tarzda rivojiga qaramasdan besh yil tinch-osoyshta o'tib, kutilmaganda, Amir Temurning 1393 yilda Bag'dodga qaytishidan keyin vaziyat hiyla keskinlashdi.⁶ Gap shundaki, shu yili Qaysariya, To'qat va Sivas hokimi Abul-Abbosga maktub yo'llab, undan o'ziga itoat qilishini talab etgandi. Hokim bu maktubga rad javobini bergan va maktubning bir nusxasini Misr Sultoni Barquqqa, birini esa turk Sultoni Boyazidga yuborgandi. Amir Temurning g'arb tomon yurishi ehtimoli tobora kuchayib borishi natijasida Boyazid, Barkuq, To'xtamish va Qozi Burhoniddin to'rtlik ittifoqini tuzdilar. 1383 yildan buyon Barquq bilan ittifoqda bo'lgan Abu-l-Abbos Amir Temur elchilari boshliqlari (kibor rusul) ning kallasini tanasidan judo qilib, kesilgan boshlarni tirik qolgan elchilarning bo'yniga osib, ularning yarmini Sulton Barquqqa va yarmini turk sultoni Boyazidga jo'natdi.⁷ Bu ikki sultonga maktub ham yo'llab, ulardan Amir Temurga qarshi shoshilinch yordam ko'rsatishni so'radi. 1393 yil oktyabrida Bag'dodda turgan Amir Temur bag'oyat qimmatbaho sovg'alar va maktublar bilan g'oyat obro'-e'tiborli va dono ulamolardan shayx Sovaiy boshchiligidagi maxsus elchilarni Sulton Barquq huzuriga jo'natdi. Elchilar Suriyadagi ar-Rahba shahriga yetib kelgach, shahar mutavallisi ularni mamlakatga kiritish uchun Sulton Barquqning ruxsatini so'radi va elchilar bilan birga qullar, joriyalar va hokazolardan iborat sultonga ko'pdan-ko'p sovg'alari borligini ham xabar qildi. Shunda elchilarni o'sha joyning o'zida zindonga tashlash, Amir Temurdan kelgan maktub va sovg'alarni unga jo'natish xususida sultondan amri farmon keldi. Amir Temur maktubida Misrga qochib kelgan Bag'dod hokimi Sulton Ahmad ibn Uvaysni mamlakatdan chiqarib yuborishni talab qilgan edi. Bundan tashqari, maktubda Amir Temurga tegishli hududlar Misr davlati hududlari bilan chegaradoshligi sababli yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini o'rnatib, elchilar almashinib, do'stona aloqalarni mustahkamlash orqali savdo ahli va tijoratchilar uchun bir mamlakatdan ikkinchisiga hech bir to'sqinliksiz borib, o'z ishlari bilan shug'ullanishi uchun imkon yaratish kabilar taklif qilingan edi. Temurning bu takliflari Sulton Barquqqa yoqmadi va hamma joyda rasm bo'lgan tartibotlarga xilof ravishda o'z noibiga Amir Temur elchilarini qatl etishni amr qilib, bu bilan unga nisbatan adovatini ochikdan-ochiq izhor etdi.⁸

1395-yil boshlarida Barquq Qohiraga qaytib keldi. Oradan bir yil o'tgach Amir Temur Sulton Barquqqa o'z vakillarini yuborib, Qohirada zindonda yotgan Atalmishni ozod etishni talab kildi. Sulton Barquq bu talabga e'tiborsiz qarab, Atalmishga «Misr zaminida menga juda yaxshi» mazmunida xat yozib yuborishni buyurdi. 1399 yili Sulton Barquq vafot

⁵ Bo'riyev Omonullo. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. – T.: 1996.

⁶ Muhammadjonov Abdulahad. Temur va temuriylar saltanati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1994.

⁷ Usmonov Qamariddin va boshqalar. O'zbekiston tarixi: oliy o'quv yurtlarining bakalavrlari uchun darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA», 2016. – 496 b.

⁸ Bo'riyev Omonullo. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. – T.: 1996.



etgach, Misr va Suriya sultoni taxtiga uning o'n bir yoshli o'g'li an-Nosir Faraj o'tirdi. Sulton Barquqning vafoti tufayli Misrda vujudga kelgan beqarorlikdan foydalangan turk sultoni Boyazid al-Ublaystiyn va Malatiyaga hujum uyushtirib, Darandni muhosara etdi. 1399 yil iyulida Amir Temur Hindiston Ozarboyjon hududiga kelib Tabrizni qarorgoh tutdi. Tabrizda turganida turk Sultoni Boyazidga maktub yo'llab, odob bilan unga o'zining Qora Yusuf va Bag'dod hokimi Ahmad ibn Uvays bilan bo'ladigan urushida betaraf mavqeda bo'lishini ishorat qildi.

Boyazid ular bilan ittifoq tuzdi. Bu hol Amir Temur g'azabini qo'zg'atdi va uning turk sultoni yerlari tomon yurishi uchun zamin hozirladi. Amir Temur Sulton Boyazidning Sivasdagi noibi amir Mustafoga qarshi harbiy harakat boshladi. Sivasga madad ko'rsatish uchun 1400-yil iyulida Boyazidning o'g'li Sulaymon boshliq turk qo'shinlari keldi. Ammo Sulaymon o'z ittifoqdoshi Qora Yusuf bilan Amir Temur zarbasiga bardosh bera olmay Bursaga qochdi. Amir Temur avval Sivasni, so'ngra Malatiya shahrini ishg'ol qildi. Amir Temur 1400 yil kuzida yosh Sulton Farajga maktub yo'llab, uning otasi yo'l qo'ygan «xatolar»ni: elchilarni o'ldirganini va Atalmishni zindonga solganini eslatdi. U Farajdan darhol Atalmish ozod etilishini talab qildi, aks holda «Suriya va Misr xalqidan o'ch olishini» ta'kidladi. Amir Temur elchilari Halabga yetib kelganlarida shahar noibi, odatdagidek, ular haqida sultonga xabar yubordi. Faraj xuddi otasi kabi Halab elchilarini zindonga tashlashni buyurdi. O'z elchilarining ikkinchi bor tahqirlanganini bilgan Amir Temur Farajni jazolashga qaror qildi. Shu bois u Misr sultoni ustiga yurish qilishga irodat etdi. 1400 yil noyabrda Amir Temur qo'shinlari al-Bahasna ustiga yurish qildilar. Qo'shinning qudratini ko'rgan shahar noibi darhol Amir Temurga itoat izhor etdi. Uning nomi bilan pul zarb etib, juma namozida nomini xutbaga ko'shib o'qitdi. So'ng Amir Temur Ayntob shahrini egalladi, uning noibi Halabga qochib ketgach, o'zi shaharga noib tayinladi. Bu voqealardan keyin Amir Temur Damashq noibi Sudunga maktub yo'llab, Sivasni Sulton Boyazidning adabini berish uchun egallaganini, Misrga tomon yurish boshlagani esa Qohirada zindonda yotgan o'z qarindoshi Atalmishni ozod etish va bu mamlakat bilan maromida munosabat o'rnatish maqsadida ekanini izohladi. Damashq noibi bu maktubga e'tibor bermadi va elchisini chormixga (salibga) tortishni buyurdi.⁹

Misr Sultoni 1401 yil yanvarida Damashqqa yetib kelib, shaharning janubiy devoridan ikki mil masofada joylashgan Yalbug'a degan tekislikda to'xtadi. Suriyaning poytaxti tomon yuz tutgan Amir Temur qo'shinlari yo'l-yo'lakay Baalbak qal'asini egalladi. Bu qal'a betakror nafosati va ulug'vorligi bilan Amir Temurni maftun etgandi.¹⁰ Amir Temur qo'shinlari Damashq chetidagi Qatana qishlog'ida joylashib, Sulton Faraj qo'shinlarining yurish-turishini kuzatib turdilar. Shuni ham qayd etish kerakki, Sulton Farajga oxirgi marotaba xat yo'llab Atalmishni ozod qilib, uning nomi bilan pul zarb qilishni taklif etganda Misr Sultoni o'z odatiga xilof ravishda Amir Temur elchilarini izzat-ikrom va xursandchilik bilan qabul qilib, o'z qo'shinining ulkan ko'rigini uyushtirib, ularga qimmatbaho sovg'alar ham topshirgan edi.

Qaytishda Amir Temur elchilari Misr sultonining elchilari bilan birga qaytgandilar.

⁹ Muhammadjonov Abdulahad. Temur va temuriylar saltanati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1994.

¹⁰ Ahmedov Bo'riboy. Amir Temur. – Toshkent: 1996.



Sulton Faraj javob xatida Atalmishni bir kun mobaynida zindondan ozod etishni va'da qilib, bundan keyin Amir Temur bilan do'stona munosabatlar o'rnatishga tayyor ekanligini bildirgandi.

Maktublarning bu tarzda do'stona ohangiga qaramasdan ikkala tomon ham Damashq ostonasidagi joylaridan turib hal qiluvchi jangga puxta hozirlik ko'rardilar.

Lekin ular o'rtasida bu jang yuz bermadi. Chunki Sulton Farajga Qohiradan hamroh bo'lib Damashqqa kelgan amirlarning bir qismi kechasi maxfiy ravishda Qohira tomon jo'nab ketganligi, shuningdek, Qohirada mamluklar amiri Lojin boshchiligidagi sultonga qarshi fitna tayyorlanayotgani haqida Farajga ma'lum bo'lib qoldi.

Shu tufayli Sulton Faraj ham Damashqni tashlab, yashirincha Qohira tomon yo'lga chiqdi, O'z holiga tashlab ketilgan sulton armiyasi o'rtasida parokandalik boshlandi. Bu holatlarning barchasi Amir Temurning Damashqni egallashi uchun imkon yaratdi. Garchand, shahar ahli kattiq qarshilik ko'rsatgan bo'lsa-da, shahar egallandi.

Amir Temur turk sultoni Boyazid ustidan g'alabaga erishganidan keyin o'z mamlakatiga qaytaturib, Sulton Farajga yana bir maktub yo'lladi, unda o'zining Sulton Boyazid ustidan erishgan zafarini ta'riflab, avvalgidek Atalmishni zindondan ozod qilishini talab etdi.

Agar Sulton Faraj uning bu shartini qabul qilsa, mamluk sultonining Damashqda asir olingan amirlari va noiblarini ozod qilishni va'da berdi. Aks holda u Misrga qaytib, uni yer bilan yakson qilishini bildirdi. 1403-yilda, ya'ni Atalmish qaytib kelgandan keyin Amir Temur Sulton Farajga, mamluklar mamlakati bilan do'stona munosabatlar o'rnatish xususida istak bildirilgan maktub bilan o'z elchilarini jo'natdi.¹¹

Ibn Arabshoh 1404-yil kuzida Samarqand yaqinidagi Konigilda Amir Temurning turk sultoni Boyazid ustidan qozongan g'alabasi sharafiga va Sohibqironning olti nevarasining nikoh to'yi (ular orasida o'n yoshli Ulug'bek ham bor) munosabati bilan uyushtirilgan katta tantanalarda Misr Sultoni an-Nosir Farajning qimmatbaho sovg'alar keltirgan elchilari ishtirok etganligi haqida yozadi. Bu elchilar orqali Amir Temur xayrixohlik ruhida zarhal harflar bilan yozilgan, uzunasiga 70 gaz, eniga 3 gazdan iborat maktubni Sulton Farajga yuboradi.

Ayni vaqtda Abdulla Keshiy ismli bir kishini ham elchi sifatida Misrga jo'natib, ikki o'rtada sulh shartnomasi imzolashni taklif etadi. XIV asr oxiri — XV asr boshida yashab, ushbu voqealarning bevosita shohidi bo'lgan taniqli misr tarixchisi Ibn Do'kmoqning guvohlik berishicha, shu tarzda sulh haqiqatan ham imzolangan va Misr sultoni o'zini Amir Temurning tobe'i (vassali) deb e'tirof etgan.

Boshqa bir muallif Ibn al-G'oziy Shubhaning ta'kidlashicha, 1405 yil yanvarida, Sulton Farajga yo'llagan maktubida Amir Temur uning mamlakatiga noilojlikdan hujum qilgani uchun Misr sultoniga o'z uzrini bildirgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan Amir Temur davlati bilan Misr mamluklar saltanati o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yigirma yillik (1386—1405) davrni o'z ichiga oladi, deb xulosa qilish mumkin.

¹¹ Ahmedov Bo'riboy. Amir Temur. – Toshkent: 1996.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shamsutdinov Rustambek va boshqalar. Vatan tarixi. Birinchi kitob. "Sharq". T-2016
2. Usmonov Qamariddin va boshqalar. O'zbekiston tarixi: oliy o'quv yurtlarining bakalavrlari uchun darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA», 2016. – 496 b.
3. Muhammadjonov Abdulahad. Temur va temuriylar saltanati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1994.
4. Ahmedov Bo'riboy. Amir Temur. – Toshkent: 1996.
5. Bo'riyev Omonullo. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. – T.: 1996.
6. Hamidulla Dadaboyev. Amir Temurning harbiy mahorati. –T., 1996
7. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/6).
8. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2023). MARKAZIY OSIYODA ARABLAR BILAN BOG'LIQ IJTIMOY QATLAMLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 1048-1052.
9. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2022). ARABISTON YARIM OROLIDA DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 118-121.